

**“UzAuto Austem” MCHJ QK korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni
ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik
HISOBOT**

2023 yil 20 dekabr

Andijon shahar

“UzAuto Austem” MCHJda 2023 yilda bitta holatda korrupsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablar buzilganligi holatlari sodir etilgan.

Jumladan, jamiyatda ishlab chiqarish bo‘limi muhandisi vazifasida ishlab kelgan U.Axmadbekov fuqaro M.Xayitov va boshqa fuqarolarni aldab, garchand “UzautoComponents” MCHJning 28.01.2022 yildagi 113-07-sonli buyrug‘ining 1.2-bandiga asosan hodimlarni ishga qabul qilish ichki me‘yoriy hujjatlar talablari asosida korxonada rahbari tomonidan amalga oshirilishi qat‘iy belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, fuqarolarni ishga qabul qilishga hech qanday vakolati yo‘qligini oldindan bila turib, ulardan “O‘zAuto-Austem” MCHJga ishga kiritib qo‘yishiga va‘da berib, buning evaziga pul mablag‘lari olib kelgan.

Ushbu holat yuzasidan komplayens xizmati tomonidan xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, U.Axmadbekov jamiyat rahbarining 28.08.2023 yildagi 192-sonli buyrug‘i bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan va unga nisbatan to‘plangan hujjatlar Andijon shahar prokuraturasiga huquqiy baho berish uchun yuborilgan.

**Komplayens xizmati
boshlig‘i**



M.Akbaraliyev